



«PREMIUM CASHBACK» AKSIYASINI O‘TKAZISH QOIDALARI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. «Premium Cashback» aksiyasi (keyingi o‘rinlarda – Aksiya) ATB «Tenge Bank» (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan Mastercard Europe SA (keyingi o‘rinlarda – Hamkor) bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan reklama kampaniyasi doirasida tashkil etiladi. Aksiya mijozlarning Bank va Hamkorga nisbatan sodiqligini shakllantirish, shuningdek ATB «Tenge Bank» tomonidan emissiya qilingan Mastercard bank kartalarini rasmiylashtirish va ulardan foydalanishni rag‘batlantirish, ularga bo‘lgan qiziqishni saqlab turish hamda bozorda ilgari surish maqsadida o‘tkaziladi.
2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yin hisoblanmaydi. Ishtirokchilar Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olmaydi. Aksiya mazkur Qoidalar muvofiq o‘tkaziladi. Aksiyada ishtirok etish uchun to‘lov undirilmaydi, mukofot jamg‘armasi faqat Bank va Hamkor mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.
3. Mazkur Qoidalar Aksiyada ishtirok etuvchi shaxslar doirasini, ishtirok etish shartlari va tartibini, keshbek to‘lash tartibini hamda Aksiya o‘tkazish muddatlarini belgilaydi.
4. Mazkur Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi onlayn va oflayn savdo maydonchalarida tovarlar xaridiga nisbatan amal qiladi.
5. Keshbek hisoblanadigan MCC-kodlar ro‘yxati bilan Bankning rasmiy veb-saytida, «Premium Cashback» Aksiyasining Individual shartlarida (keyingi o‘rinlarda – Individual shartlar) tanishish mumkin.
6. Aksiya tashkilotchisi — Bank.
7. Bankning yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100007, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko‘chasi, 66-uy.
8. Bank Kontakt-markazi telefoni: 1245.
9. Bankning rasmiy veb-sayti:– www.tengebank.uz

II. AKSIYA MUDDATLARI VA O‘TKAZILISH JOYI

10. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.
11. Aksiyaning o‘tkazilish muddatlari tasdiqlangan Individual shartlar bilan belgilanadi.
12. Bank Aksiya muddatlariga o‘zgartirish kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Bunday o‘zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o‘n) ish kuni oldin www.tengebank.uz saytida e‘lon qilinadi.

III. AKSIYA ISHTIROKCHILARI VA ISHTIROK ETISH SHARTLARI, KESHBEK TO‘LASH TARTIBI

13. Aksiyada muomalaga layoqatli, voyaga yetgan jismoniy shaxslar — ATB «Tenge Bank» mijozlari, shu jumladan Bank xodimlari, ATB «Tenge Bank» tomonidan emissiya qilingan Mastercard kartalari egalari (keyingi o‘rinlarda – Ishtirokchi) ishtirok etishi mumkin. Ular Aksiya davrida Individual shartlarda ko‘rsatilgan MCC-kodlar ostida ro‘yxatdan o‘tgan to‘lov terminallari orqali mazkur karta bilan bir yoki bir nechta xaridni amalga oshirgan bo‘lishi lozim.
14. Quyidagi operatsiyalarni amalga oshirgan mijozlar Aksiyada ishtirok etmaydi:
 - karta orqali kartaga pul o‘tkazmalari (P2P);
 - chakana tovar xaridi bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy va boshqa operatsiyalar;
 - moliyaviy, qimor, psevdonaqd va kvazinaqd operatsiyalar, shuningdek naqd pulga tenglashtirilgan operatsiyalar;
 - kassalar, bankomatlar yoki terminallar orqali naqd pul yechish operatsiyalari.

15. Aksiya davrida va mazkur Qoidalariga rioya qilingan holda, Ishtirokchilar tasdiqlangan Individual shartlarda ko'rsatilgan miqdorda keshbek oladilar. Keshbek ATB «Tenge Bank» tomonidan emissiya qilingan Mastercard kartasi orqali, Individual shartlarda ko'rsatilgan MCC-kod ostida ro'yxatdan o'tgan to'lov terminali orqali amalga oshirilgan muvaffaqiyatli to'lov summasidan hisoblanadi.
16. Keshbek tasdiqlangan Individual shartlarga muvofiq, bir kalendar oy davomida amalga oshirilgan ma'lum miqdordagi muvaffaqiyatli xarid operatsiyalari uchun to'lanadi. Bir kalendar oy davomida bitta bank kartasiga hisoblanadigan maksimal keshbek summasi Individual shartlarda belgilangan limitdan oshmasligi kerak.
17. Keshbek har oy oxirgi bank ish kunida, Aksiya amal qilish muddati davomida to'lanadi.
18. Keshbek tranzaksiya amalga oshirilgan Mastercard bank kartasiga o'tkaziladi.
19. To'lov bekor qilingan taqdirda (tovar qaytarilganda yoki qisman qaytarilganda), hisoblangan keshbek bekor qilinadi va Ishtirokchining keshbek hisobvarag'idan yechib olinadi.
20. Tovar qaytarilganda (xarid summasi Ishtirokchiga qaytarilishi bilan), Ishtirokchi avval hisoblangan keshbek summasini qaytarilgan tovar summasiga mutanosib ravishda, tranzaksiya amalga oshirilgan Mastercard kartasiga mablag' qaytarilganda akseptsiz tartibda yechib olishga rozilik bildiradi.
21. Bank, agar Mastercard kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha shubhalar yuzaga kelsa, bu haqda Ishtirokchi va Hamkorni xabardor qilgan holda keshbekni to'lamaslik huquqiga ega.
22. Bank asossiz ravishda keshbek olish maqsadida firibgarlik harakatlari sodir etilganligi bo'yicha shubha mavjud bo'lgan shaxslarni Aksiyada ishtirok etishiga yo'l qo'ymaslik huquqiga ega.
23. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra Individual shartlarga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini saqlab qoladi. O'zgartirishlar kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) ish kuni oldin www.tengebank.uz saytida e'lon qilinadi. Bank Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etishi bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zarar, xarajat va boshqa sarf-xarajatlarni qoplamaydi.
24. Aksiya davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Bank va Ishtirokchi o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sud tartibida ko'rib chiqiladi.
25. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi ta'minlangan holda, Bankka o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, foydalanish, tarqatish va uzatishga rozilik beradi.
26. Aksiyada ishtirok etish faqat mazkur Qoidalar va Individual shartlarning barcha talablariga so'zsiz rioya qilingan taqdirdagina mumkin.
27. Mazkur Aksiya doirasida keshbek olish bilan bog'liq davlat budjetiga to'lanadigan soliqlar Bank tomonidan Bankning ichki qoidalari, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lanadi.

IV. AKSIYA SHARTLARI, TO'XTATILISHI YOKI MUDDATIDAN OLDIN BEKOR QILINISHI HAQIDA AXBOROT BERISH TARTIBI

28. Aksiya shartlari va uni o'tkazish tartibi haqida Ishtirokchilarni xabardor qilish Bankning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari, radio va boshqa OAV orqali amalga oshiriladi.
29. Aksiya haqida batafsil ma'lumot, shuningdek Aksiya Qoidalari va Individual shartlar www.tengebank.uz rasmiy saytida joylashtiriladi.
30. Qo'shimcha ma'lumotni 1245 telefon raqami orqali olish mumkin.
31. Aksiya muddatidan oldin bekor qilingan, muddati uzaytirilgan yoki Individual shartlarga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, tegishli ma'lumot Bankning rasmiy sayti www.tengebank.uz, da belgilangan tartibda joylashtiriladi.